



BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI BEPUL NONUSHTA BILAN TA'MINLASHNI TASHKIL ETISH

Sanayev Ermat Shermatovich

Toshkent kimyo-texnologiya instituti, dotsent

Sadikov Abdurashid Razikovich

Toshkent kimyo-texnologiya instituti, katta o'qituvchi

Fayzullayeva Nodira Zaynutdinovna

Toshkent kimyo-texnologiya instituti, assistenti

Shomaksudova Komola Djo'rayevna

Toshkent kimyo-texnologiya instituti, assistenti

Uzoqova Shirin Ibrohimovna

Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shahrисабз filiali, assistent

Annotatsiya. Aholining turli qatlamlari ichidan umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'quvchilari alohida ahamiyatga ega qatlam hisoblanadi. Chunki bolalar maktabgacha ta'lif tashkilotlarida 3-4 mahaldan ovqatlantirilib boriladi. Bola ulg'ayib maktabning boshlang'ich sinfiga qabul qilinganda bugungi kunda ularni tartibli ovqatlantirish yo'lga qo'yilmayotganligi sababli ular maktablarda ovqatlantirilmayapti. Natijada bola organizmining rivojlanishi uchun zarur bo'lgan vitaminlar mikro va makro elementlar yetishmasligi, maktabda o'qish davomida sarflanadigan energiya manbalari yetarlicha qoplay olinmayapti. Bunday holatlar esa davlatimizning kelajagi bo'lgan bolalarimizni sog'liqlariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bolalar o'rtasida kamqonlik, avitaminoz, kalsiy, fosfor, yod yetishmovchiligi tufayli ko'p kasalliklar kelib chiqmoqda.

Kalit so'zlar: umumta'lim maktablar, boshlang'ich sinf, vitaminlar, minerallar, avitaminoz, kamqonlik, sog'lom ovqatlanish.

ОРГАНИЗАЦИЯ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ С БЕСПЛАТНЫМИ ЗАВТРАКАМИ

Аннотация. Среди различных типов населения особо важную прослойку составляют учащиеся начальных классов. Потому что в общеобразовательных школах детей кормят 3-4 раза. Когда ребенок подрастает и поступает в начальную школу, его не кормят в школах, потому что сегодня нет возможности обеспечить его правильным питанием. В результате возникает дефицит витаминов, микро- и макроэлементов, необходимых для развития детского организма, а источники энергии, используемые во время школьного обучения, не могут быть адекватно покрыты. Такие ситуации негативно сказываются на здоровье наших детей, за которыми будущее нашей страны. Многие заболевания возникают у детей вследствие анемии, авитоминоза, дефицита кальция, фосфора, йода.

Ключевые слова: средние общеобразовательные школы, начальная школа, витамины, минеральные вещества, авитоминоз, анемия, здоровое питание.

ORGANIZATION OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS WITH FREE BREAKFASTS

Abstract. Among the different types of the population, primary school students are a particularly important stratum. Because in secondary educational schools children are fed 3-4 times. When a child grows up and enters primary school, he is not fed in schools, because today there is no way to provide him with proper nutrition. As a result, there is a lack of vitamins, micro- and macronutrients necessary for the development of the child's body, and the energy sources used during schooling cannot be

adequately covered. Such situations have a negative impact on the health of our children, who are the future of our country. Many diseases occur in children due to anemia, avitominosis, deficiency of calcium, phosphorus, iodine.

Keywords: secondary educational schools, primary schools, vitamins, minerals, avitominosis, anemia, healthy eating.

KIRISH.

O'zbekistonda mazkur masala tahlil qilib chiqilib keying paytlarda sog'lom ovqatlapntirishni tashkil etish yuzasidan bir qator farmon va qarorlar qabul qilingan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ahollining sog'lom ovqatlanishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2020 yil 10 noyabrdagi PQ-4887-son va "Sog'liqni saqlash sohasini kompleks rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2021 yil 25 maydagi PQ-5124-son qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni bunga misol bo'ladi. "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasini 2023 yilda amalga oshirishga oid Davlat dasturi"ning 45-maqсадида Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatida boshlang'ich sinf o'quvchilarini bosqichma-bosqich bepul ovqat bilan ta'minlash hamda respublikaning barcha umumta'lim maktablarida sog'lom ovqatlanish tizimini amalga oshirish vazifalari o'z aksini topgan.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini bepul ovqatlantirish tizimi ta'lim jarayoniga ham bevosita ta'sir qiladi. Chunki bola maktabda och bo'lsa, berilayotgan ta'limni to'la o'zlashtirib olishga kuchi yetmaydi.

Davlatimiz rahbari 2022 yilgi Murojaatnomasida bu tizimni butun respublika bo'ylab yo'lga qo'yish tashabbusini ilgari surgan edi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to'g'risida"gi farmoni loyihasida ham 2023/2024 o'quv yilidan boshlab respublikaning barcha viloyatlari va Toshkent shahrida boshlang'ich sinf o'quvchilarini bepul ovqat bilan ta'minlash yo'lga qo'yilishi belgilangan.

Umumxalq muhokamasi uchun e'lon qilingan 2023 yilgi Davlat dasturi loyihasiga ko'ra, 2023/2024 o'quv yilidan boshlab respublikaning barcha viloyatlari va Toshkent shahrida boshlang'ich sinf o'quvchilarini bepul ovqat bilan ta'minlash yo'lga qo'yilishi ko'zda tutilgan.

Natijada, joriy yilda bepul ovqat berish tizimi bilan 2,5 mln nafar o'quvchini qamrab olish va ushbu maqsadlarga 2,7 trln so'mga yaqin mablag' ajratish ta'minlanishi rejalashtirilgan.

Hududlardagi umumta'lim maktablari oshxonalarining aksariyati talabga javob bermaydi. Oshxonalar mavjud bo'lmagan maktablar ham talaygina. Oshxonasi mavjudlari ham texnologik jihozlari (elektr plita, pishirish qozonlari, qovurish pechlari) yaroqsiz holda 50-60 yil davomida yangilanmagan. Oshxonalar zallari ta'mortalab holda o'tirish o'rinnlari ham mavjud emas. Mana shunday holatda bepul ovqatlantirish tizimini butun respublika bo'yicha tatbiq etishda qiyinchiliklar yuzaga keladi.

MAVZUNING DOLZARBLIGI VA VAZIFALARI

"Go'sht, sut va konserva mahsulotlari texnologiyasi" kafedrasi mutaxasislari tomonidan Bolalar funksional ovqatlanishini tizimli tashkil etishning milliy strategiyasini ishlab chiqish bilan O'zbekistonda umumta'lim maktablarining 1-4 sinf boshlang'ich sinf o'quvchilarini bepul nonushta bilan ta'minlashni Funksional ovqatlantirish kombinatlari orqali tashkil etish taklif qilinmoqda. Turmush tarzining o'zgarishi, energiya sarfining kamayishi bilan bog'liq ovqatlanish strukturasi tarkibidagi jiddiy o'zgarishlar aholi guruhlarining hech biri iste'mol qilinadigan oziq - ovqatdan sog'lil qilib uchun zarur bo'lgan vitaminlar, mikro va makroyelementlar miqdorini yetarli



darajada olmasligiga olib kelmoqda. Inson sog‘lig‘i uchun zarur bo‘lgan qo‘sishimcha moddalar manbalarini topish zaruriyati mavjud. Mazkur muammoni boyitilgan, funksional ovqatlar hal qilishi mumkin.

MUHOKAMA

Funksional ovqatlanish-bu muntazam ravishda kundalik foydalanish uchun mo‘ljallangan va tanadagi inson organizmiga zarur bo‘lgan moddalar yetishmovchiligini, birinchi navbatda tartibga soluvchi oziq-ovqat xususiyatlarga ega tabiiy yoki sun‘iy maxsus mahsulotlardan tayyorlangan mahsulotlar va taomlarni iste’mol qilishdir.

Bugungi kunda biz ushbu mahsulotlar haqida tez-tez eshitamiz, garchi hozirgi vaqtida funksional ovqatlanish mahsulotlari bir qator ma’lumotlarga ko‘ra barcha ma’lum oziq-ovqat mahsulotlarining 3% dan ko‘pini tashkil qilmasa ham , ovqatlanish va tibbiyot sohasidagi dunyoning yetakchi mutaxassislarining

prognozlariga ko‘ra, yaqin 15-20 yil ichida ularning ulushi butun oziq-ovqat bozorining 30 foiziga yetishi ko‘zda tutilmoqda.

Toshkent shahri va viloyat markazlarida Bolalar funksional ovqatlantirish kombinatlari tashkil etilib, barcha maktablarga “keytring usulida” funksional ovqatlar yetkazib berilishi bolalar organizmlarini rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan vitaminlar mikro va makro elementlar bilan to‘liq ta’minalash imkoniyatini beradi.

Institut mutaxassislar tomonidan bolalar uchun tayyorlanadigan funksional ovqatlarni tayyorlash texnologiyasini ishlab chiqish jarayonlari amalga oshirilmoqda. Shuningdek, Funksional ovqatlantirish kombinatlari uchun zarur jihozlar ro‘yhati shakllantirilmoqda.

Bolalar uchun tayyorlanishi rejalshtirilayotgan funksional ovqatlarni qo‘yidagi texnologiyalar asosida tayyorlash ko‘zda tutilmoqda:

funksional non-qandolat va yuqori sifatli oqsillarga boy quritilgan maxsulotlar(glyutensiz non, butunligicha yanchilgan donlar asosidagi non-bo‘lka maxsulotlari, quritilgan mevalar va noyob elementlarga boy xomashyolar komleksidan tayyorlangan funksional qandolat maxsulotlari.....) ;

parranda, baliq va xayvon go‘shtiga maxsus ishlov berib funksional go‘sht maxsulotlari(maxsus marenndalar bilan ishlov berilgan va pishirilgan go‘shtli taomlar.....);

bug‘da pishirilgan donlar(boshoqli va dukkakli donlarning dumbullari va undirilgan mevalari asosidagi funksional gazaklar...);

vitamin va menerallar bilan boyitilgan sut va sharbat maxsulotlari(xayvon suti va o‘simlik xomashyolariga maxsus ishlovlari berish usullari bilan olinadigan ichimliklar...)

funksional djem va murabbolar(maxalliy meva sabzavotlar va dorivor o‘simliklar asosidagi murabbo, djem, va siroplar....)

Yuqorida ko‘rsatilgan mahsulotlar tarkibi bolalar organizmi uchun zarur bo‘lgan vitaminlar, mikro va makro elementlar bilan kafolatlangan holda ta’minalishi bilan bir qatorda bu mahsulotlarni saqlanish muddatlari va logistikasini tashkil etishda qulayliklar mavjud bo‘ladi.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, mazkur loyihani amalga oshirilishi bilan 1-4 sinf boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini bepul nonushta bilan ta’minalash jarayonini sifatli amalga oshirilishi imkonli mavjud bo‘ladi. Bundan tashqari, mazkur jarayonda bolalar iste’mol qilayotgan mahsulotlarni to‘liq xavfsizligi ta’milanadi. Tizimli nazorat o‘rnataladi. Respublikaning barcha hududlarida bir xil kafolatlangan funksional ovqatlar bilan ta’minalash imkoniyati mavjud bo‘ladi.Jarayonni to‘liq raqamlashtirilishi bilan ya’ni dasturlar asosida axborot kommunikatsiya vositalari asosida amalga oshirilishi bilan korrupsion holatlarni oldin olish imkoniyati bo‘ladi (turli hisobotlarni tayyorlash jarayonidagi faktorlar matab direktori, tuman xalq ta’limi bo‘limi, viloyat xalq ta’limi boshqarmasi kabi idoralardagi byurokratik to‘siqlarni olib tashlanadi). Funksional ovqatlanish kombinatidan to‘g‘ridan to‘g‘ri matabgacha yetkazib beriladigan logistik mexanizm joriy etiladi.Eng muhim funksional ovqatlanish orqali bolalar o‘rtasida ko‘payib borayotgan kasalliklarni oldini olish mexanizmi ishga tushadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI / REFERENCES

1. А.Садиков., Т.Умаралиев.. З.Тоғаев., Р.Қосимов., Ф.Хасанова., ..Лундина..А.Мирзаахмедов. Мактабгача таълим муассасаларида соғлом овқатланишни ташкил этиш. Ўзбекистон ошпазлар Уюшмаси. 1-2 б.
2. А где у вас здесь буфет? - в погоне за образованием забыли накормить школьников [Электронный ресурс]. - 02.11.2018. - Режим доступа:<https://az.sputniknews.ru/health/20181102/417708525/shkolnye-bufety-pitanie.html>.
3. Акынбеков, К. У. Медицинская статистика. Учебное пособие для врачей Министерства здравоохранения КР [Текст] / К. У. Акынбеков. - Б., 2006. - 90 с.
4. Амонова, Д. Р. Необходимость организации правильного и сбалансированного питания школьного возраста в Республике Таджикистан. [Текст] / Д. Р. Амонова // Вестник КРСУ. - 2015. - Том 15, №11. - С. 26-28.
5. Анализ фактического питания детей и подростков России в возрасте от 3 до 19 лет [Текст] / А. Н. Мартинчик, А. К. Батурина, Э. Э. Кешабянц и др. // Вопросы питания. - Т. 86, № 4. - 2017. - С. 50-60.
6. Анкета о здоровье полости рта для взрослых. Стоматологическое обследование. Основные методы [Электронный ресурс] / ВОЗ; ГБОУ ВПО МГМСУ им. А.И. Евдокимова. - ВОЗ, 2016. - С.121-124. - Режим доступа: <http://apps.who.int/iris/bitstream/handle/10665/97035/9789241548649rus.pdf?sequence=5&isAllowed=y>